

AMALIY TARJIMA ELEMENTLARINING ZAMONAVIY KLASSIFIKATSIYASI

Solijonov Jo'raali Kamoljonovich

TerDU Ingliz tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi.

solijonov94@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13133299>

Annotatsiya. Mazkur maqola zamonaviy tarjimashunoslikning uzoq yillardan buyon dolzarb masalasiga aylanib qolgan muammosiga yechim sifatida original amaliy tasniflarni tavsiya qiladi. Tarjimashunoslikni fan sifatida nazariy hamda amaliy qismlarga ajratsak, tarjima nazariyasi ustida ko'plab izlanishlar olib borilgan. Biroq tarjima amaliyoti haligacha alohida klassifikatsiyalanmagan.

Kalit so'zlar: tarjima amaliyoti, tarjima tasnifi, tarjima elementlari, usullar, transformatsiya, taxrir bosqichlari.

MODERN CLASSIFICATION OF ELEMENTS OF PRACTICAL TRANSLATION

Abstract. This article recommends original practical classifications as a solution to a problem that has become an urgent problem of modern translation studies for many years. If we divide translation studies as a science into theoretical and practical parts, many studies have been conducted on the theory of translation. However, the practice of translation is not yet classified separately.

Key words: translation practice, translation classification, translation elements, methods, transformation, stages of editing.

СОВРЕМЕННАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЭЛЕМЕНТОВ ПРАКТИЧЕСКОГО ПЕРЕВОДА

Аннотация. В данной статье предлагаются оригинальные практические классификации как решение проблемы, которая на многие годы стала актуальной проблемой современного переводоведения. Если разделить переводоведение как науку на теоретическую и практическую части, то по теории перевода проведено немало исследований. Однако практика перевода пока не классифицируется отдельно.

Ключевые слова: переводческая практика, классификация перевода, элементы перевода, методы, трансформация, этапы редактирования.

KIRISH

Tarjimashunoslik O'zbekistonda fan sifatida 1980-yillarda eng yuqori cho'qqisiga erishdi.

Bunda olimlardan G'aybulla Salomov va Zohidjon Sodiqov va boshqalar "Tarjima tashvishlari", "Tarjimashunoslikning ko'p tilli izohli lug'ati" va "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kabi sohaga muhim to'plam, qo'llanma va maqolalarni yaratishgan.

Xalqaro olimlardan Avstraliyalik olim Antony Pim lingvomadaniy matnlar tarjimasi ustida, Misrlik olimi Mona Baker tarjima etikasi, tarjimashunoslikda ideologik matnlar roli, korpus lingvistikasiga oid tarjimalar, hindistonlik izlanuvchi Gayatri Chakravotri esa zamonaviy tarjima amaliyoti yuzasidan fundamental ilmiy ishlarni yaratganlar.

Biroq bularning hech birida ma'lum matnni amalda tarjima qilish, tahlil qilish va taxrirlash bosqichlari klassifikatsiyalanmagan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mazkur maqolani yaratishda tarjima metodi, chog'ishtirma lingvistik, tasnif hamda tahliliy metodlardan foydalanildi.

Shuningdek, Toshkent davlat sharqshunoslik instituti olimi Ergash Ochilovning "Badiiy tarjima masalalari" qo'llanmasi, Buxoro davlat universiteti izlanuvchisi Sadirova Sitoraning "Stilistik va pragmatic jihatdan tarjimani tahlil qilish" ilmiy maqolasi, S. Babayeva va B. Muradullayevalarning "Tarjimada qo'llaniladigan an'anaviy hamda innovatsion usullar" nomli maqolalari tahlil qilindi.

NATIJALAR

Izlanishimiz natijasida istalgan tarjimon uchun strategiyalar to'plamini tuzishda, istalgan matnni tarjima qilishda, tayyor tarjimalarni baholash va tahlil qilishda, nashrdan oldingi taxrirlashda qo'l keladigan konkret uslubiy xarita sifatida jadval yaratdik.

Unga ko'ra, fanda "Tarjima elementlari" nomli yangi tushunchani joriy etish tavsiya etildi hamda har bir elementga ta'rif berildi.

MUHOKAMA

"Tarjima elementlari" – amaliy tarjima yoxud tarjimashunoslik amaliyotini xususiyoq doirada tushunib olish uchun tarjimon ish jarayonida qo'llaydigan vositadir.

Bu tushuncha mavjud bo'lmagan hozirgacha bo'lgan davrda tarjima usullarini, tarjima transformatsiyalarini hamda taxrir bosqichlarini aniq sanash, ma'lum guruhlariga kiritish va bosqichlarni aniqlashning amalda imkoni yo'q.

Chunki tilshunoslik bo'limlari aniq bo'limlar asosida tasniflangani tufayli, uni o'rganish, o'qitish, u asosida tahlillar qilish, izlanishlar olib borish olimlarga qiyinchilik tug'dirmaydi. Ammo tarjimashunoslik amaliyoti fani esa aniq bo'limlarga shu vaqtgacha klassifikatsiyalanmagan.

Buni amalga oshirishda esa yuqoridagi tushunchani yanada aniqlashtirish – muhim.

Tarjima elementlari sifatida aynan uchta sinfni tanlab oldik – tarjima usullari, transformatsion hodisalar hamda taxrir bosqichlari.

Bular bir vaqtda ham alohida bo'lim, ham tarjimani amalga oshirishning ketma-ket bosqichlari hamdir. Tarjima elementlarini klassifikatsiyalashda quyidagi asosiy talablarni asos qilib oldik:

1. **Tarjima strategiyasini** tuzib olish;
2. Tarjimani **cheksiz tahlil qilish**;
3. Tarjimani **cheqrali taxrir** qilish.

Fanda tarjima strategiyasiga "Tarjimon matnni o'girishdan oldin uni qaysi usullar asosida bir tildan boshqa tilga o'tkazish rejasini tuzib olish jarayoni" sifatida ta'rif beriladi.

Shunda o'z-o'zidan ma'lum bo'ladiki, "Tarjima strategiyasi" – bu tarjima usullari to'plami bo'lib, usullar soni cheklangan bo'lishi tabiiy va majburiydir, masalan, adaptatsiya yoki transliteratsiya.

Agar bunga rioya qilinmasa, tarjimon o'zi istalgancha metod yaratib olib, original matn semantik-strukturaviy xususiyatlarini batamom o'zgartirib yuborishi mumkin.

Ilk bosqichda matnni tahlil qilgan holda, masalan, ommabop yoki ilmiy matn, usullar tanlab olingandan so'ng tarjima jarayoni boshlanadi.

Tarjimon istalgan usulni so'z va gaplarga qo'llar ekan, til birliklari avtomatik tarzda shaklan o'zgara boshlaydi – bu transformatsiya hodisasidir. Transformatsiyalarni qanday amalga oshishini, sonini va natijasini nazorat qilish amalda imkonsizdir.

Chunki ma'lum tildagi matn o'sha tilning xususiyat va bo'limlaridan kelib chiqqan holda yaratilgan bo'lsa, u boshqa tilga o'tganida, tarjima tilida original tildagi bo'limlar mavjud bo'lmasligi mumkin. Ingliz tilidagi oddiygina artikllar bunga misol bo'la oladi.

Shunda so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanib, o'girilgan oddiy so'zda leksik transformatsiya hodisasi o'z-o'zidan sodir bo'ladi, ya'ni artikl (so'z) tushib qolishi ehtimoli yuqori va buni tarjimon istasa ham to'liq nazorat qila olmaydi.

Transformatsiyalarning yana bir xususiyati – tilda qancha bo'limlar bo'lsa, shuncha turli transformatsion hodisalar sodir bo'lishi mumkin. Shu ikki omil transformatsiyalarni usullardan farqlaydi hamda cheksiz ekaniga dalil bo'la oladi.

Xullas, transformatsiya – bu usul emas, balki, hodisadir. Bu mazkur klassifikatsiyani ishlab chiqishda yuqoridagi ikkinchi talab natijasi hisoblanadi.

“Taxrir bosqichlari” – amalda nashriyot uylarida tayyor matn chop etilgunicha o'rtacha 10 bosqichdan o'tadi va elektron yoki qog'oz kitob shakliga keltiriladi, biz esa tayyor tarjimani taxrir qilishning o'zini 7 bosqichga bo'lgan holda, taxrir bosqichlarini – **“amaliy tarjimaning uchinchi elementi”** sifatida tasnifladik.

Bular, **leksikologik taxrir, morfologik taxrir, sintaktik taxrir, orfografik taxrir, stilistik taxrir, punktuatsion taxrir, semantik taxrir.**

Taxrir bosqichlari soni mantiqiy ketma-ketlik asosida ishlab chiqilganining sababi, tarjimon ham, tayyor tarjimani tahlil qiluvchi ham, tarjimani chop etuvchi ham bitta – universal xaritaga ega bo'lishi lozim.

Shuningdek, tarjimani taxrir qilish bosqichlarini cheklashning yana bir sababi – cheksiz taxrir asosida chop etilayotgan materialning semantik-strukturaviy holati butkul o'zgarib ketishini oldini olishdir.

XULOSA

Mazkur klassifikatsiya original bo'lib, tilshunos, tarjimon, tarjima yo'nalishi izlanuvchilari va talabalari, tahlil qiluvchi, taxrirchi – muharrirlarga birdek qo'l keladi, ular orasida ko'prik bo'lib xizmat qilindi.

Bu elementlar klassifikatsiyasi asosida Termiz davlat universiteti Tarjima nazariyasi va amaliyoti (ingliz tili) ta'lim yo'nalishi 3-4-bosqich talabalariga “Yozma tarjima” va “Badiiy tarjima” fanlarini o'qitishda qo'llandi hamda O'zbekiston milliy universiteti, Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari instituti olimlariga, jumladan, tarjima sohasida professor Rahima Shirinova, Ziyoda Teshaboyevalarga taqdim qilindi hamda ma'qullandi.

Quyida izlanish natijasidagi qisqa jadval keltirilgan:

JO'RAALI SOLIJONOV KAMOLJONOVICH KLASSIFIKATSIYASI ASOSIDA

TARJIMA ELEMENTLARI

Ro'yxat doirasi va imkoniyatlar cheklangan	Ro'yxat doirasi va imkoniyatlar cheklanmagan	Ro'yxat doirasi va imkoniyatlar cheklangan
USULLAR	TRANSFORMATSIYALAR	TAXRIR
• So'zma-so'z tarjima • Umumlashtirish • Konkretlashtirish • Antonomik tarjima • Adaptatsiya • Taglama ...	• Leksikologik transfor.. • Morfologik • Fonetik • Stilistik • Semantik • ...	• Leksikologik taxrir • Morfologik taxrir • Sintaktik taxrir • Fonetik taxrir • Stilistik taxrir • Semantik taxrir

Tarjima elementlarini klassifikatsiyalash talablari:

4. Tarjima strategiyasini tuzib olish;
5. Tarjimani cheksiz tahlil qilish;
6. Tarjimani chegrali taxrir qilish.

Tarjimani tahlil va taxrir qilishda foydalaniladigan metodlar:

5. Lingvistik qiyosiy tahlil asosida taxrir;
6. Adabiy qiyosiy tahlil asosida taxrir;
7. Lingvistik chog'ishtirma tahlil asosida taxrir;
8. Adabiy chog'ishtirma tahlil asosida taxrir;

REFERENCES

1. Pym, A. (1992). Translation and text transfer (p. 52). Frankfurt: Peter Lang.
2. Spivak, G. C. (2021). The politics of translation. In The translation studies reader (pp. 320-338). Routledge.
3. Sitara, S. (2023). STILISTIK VA PRAGMATIK JIHATDAN TARJIMANI TALIL QILISH. " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION, 10(1).
4. Babayeva, S. R., & Muradullayevna, B. D. (2023). TARJIMADA QO'LLANILADIGAN AN'ANAVIY HAMDA INNOVATSION USULLAR. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(6), 81-87.
5. Teshaboyeva, Z. Q. (2022). A Cognitive Study of "Baburname"'S Translations and Principle of Compiling a Textual Dictionary. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1994-2006.

6. Arustamyan, Y., Shirinova, R., & Baratova, K. (2022). Cognitive Context in a Work of Art. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(1).
7. Kamoljnovich, S. J. (2022). JK ROULINGNING FANTASTIK ASARLARIDAGI ANTROPONIMLARNING LINGVO-PERSPEKTIV MUAMMOLARI. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(1), 334-343.
8. Ochilov, E., & Khodjayeva, N. (2022). *Tarjima nazariyasi. O'quv qo'llanma*, Sharqshunoslik Universiteti Toshkent-2020.